

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEXANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI

Safarov Radjabboy Eshmuxammadovich

O‘zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi magistranti,

e-mail: sradjabboy@gmail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola kambag‘allikni qisqartirishda individual daromadga soliqlar mexanizmidan samarali foydalanish masalalari bag‘ishlangan bo‘lib, asosiy masala sifatida mavzu doirasida rivojlangan mamlakatlar tajribalarni o‘rganish hamda olingan natijalar asosida xulosa va takliflar shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada Xitoy Xalq Respublikasi misolida jismoniy shaxslari soliqqa tortish mexanizmini tahlil etildi, bunda ma’lumotlarni tavsiflash, natijalarni qayta ishlash, olingan natijalarni tahlil qilish, tendensiyalarni kuzatish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Maqola so‘ngida o‘rganish natijalari asosida xulosalar shakllantirildi va takliflar berildi.

Kalit so‘zlar: soliqqa tortish mexanizmi, aholining turmush darajasi, daromadlarning shakllanishi, aholining real daromadlari, soliq solish obyekti, soliq stavkasi, soliqlar miqdori, iqtisodiy salohiyat, davlat soliq siyosati.

ВОПРОСЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕХАНИЗМА НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ДОХОДОВ ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ В СОКРАЩЕНИИ БЕДНОСТИ

Сафаров Раджаббой Эшмухаммадович,
магистрант Банковско-финансовой академии
Республики Узбекистан,
e-mail: sradjabboy@gmail.ru

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена вопросам эффективного использования механизма налогообложения индивидуальных доходов при сокращении

бедности, основным вопросом в рамках темы является изучение опыта развитых стран и формирование выводов и предложений на основе полученных результатов. Для достижения этой цели в статье был проанализирован механизм налогообложения физических лиц на примере Китайской Народной Республики с использованием методов описания данных, обработки результатов, анализа полученных результатов, отслеживания тенденций, индукции и дедукции. В конце статьи на основе результатов исследования сформулированы выводы и даны предложения.

Ключевые слова: механизм налогообложения, уровень жизни населения, формирование доходов, реальные доходы населения, объект налогообложения, ставка налога, сумма налогов, экономический потенциал, государственная налоговая политика.

ISSUES OF EFFECTIVE USE OF THE MECHANISM OF TAXATION OF PERSONAL INCOME IN POVERTY REDUCTION

Safarov Radjabboy Eshmuxammadovich,
Master's student of the Banking and Finance Academy
of the Republic of Uzbekistan,
e-mail: sradjabboy@gmail.ru

ABSTRACT

This article is devoted to the effective use of the mechanism of taxation of individual income in poverty reduction, the main issue in the framework of the topic is the study of the experience of developed countries and the formation of conclusions and proposals based on the results obtained. To achieve this goal, the article analyzed the mechanism of taxation of individuals on the example of the People's Republic of China using methods of data description, results processing, analysis of the results obtained, trend tracking, induction and deduction. At the end of the article, based on the results of the study, conclusions are formulated and suggestions are given.

Keywords: taxation mechanism, standard of living of the population, income generation, real income of the population, object of taxation, tax rate, amount of taxes, economic potential, state tax policy.

Kirish. Soliqqa tortish mexanizmi aholining turmush darajasiga va uning daromadlari shakllanishiga hamda ijtimoiy tabaqalanish darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ushbu masalani o'rganish tadqiqotchi olimlar va

mutaxassislarga alohida mas’uliyat yuklaydi hamda o‘zgacha qiziqish uyg‘otadi, chunki bu masala davlatning kelajagini ravnaqini belgilashda xalqning yaxshi va farovon turmush sharoiti ta’minalash mexanizmi bilan xam-ohangdir. So‘nggi yillarda soliq tortishning roli va uning yurtimiz aholisi turmush darajasiga ta’siri o‘zgardi, soliqqa tortishdaadolat va tenglikni ta’minalash maqsad qilib olinib, soliq tizimini isloh qilish to‘g‘risida jiddiy qadamlar tashlandi va o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Birgina kuni kecha qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 17-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim hujjatlariga ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini soddallashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida” 547-son”[2] qaroriga muvofiq endilikda “xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlarining sessiyalari oralig‘idagi davrda “Temir daftar”ga kiritilgan ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir oilalarga kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda zudlik bilan yordam ko‘rsatish zarurati yuzaga kelganda, bir martalik moddiy yordamni fuqarolar yig‘inlari tomonidan sektorlar rahbarlari bilan kelishgan holda taqdim etilgan xulosaga asosan bir ish kunida tuman (shahar) hokimlari qarorlari bilan beriladi”[3].

Darhaqiqat davlatimiz rahbariyati boshchiligidagi keyingi yillarda xalq farovonligini ta’minalashga qaratilgan ezgu g‘oya asosida “inson qadri uchun” shiori asosida izchil siyosat olib borilmoqda, buning natijasida 2027 yilga borib yurtimizda kambag‘allikni kamida 2 baravarga kamaytirish maqsad etib olingan. Albatta ushbu vazifani bajarishda davlatning fiskal siyosati ham salmog‘i yetakchi o‘rin egallaydi, zero davlat soliqlar va yig‘imlar miqdorini o‘zgartirish orqali aholining jamg‘arma darajasiga ta’sir qiladi. Boshqa ko‘plab omillarga qaraganda, fuqarolarning moddiy farovonligi shaxsiy daromadga belgilangan soliqlar ko‘proq ta’sir qiladi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, individual daromadlarga solig‘i solinishi aniq ijtimoiy xususiyatga ega, chunki u istisnosiz mamlakatning iqtisodiy faol aholisining barcha qatlamlari manfaatlariga bevosita ta’sir qiladi.

Daromad solig‘i aholining real daromadlari darajasiga ta’sir qilish uchun katta imkoniyatlarga ega va shu tariqa ularning turmush darajasi aholining individual daromadlarini tartibga solish uchun imtiyozlar, soliq stavkalari tizimidan foydalanishga imkon beradi. Bundan tashqari, shaxsiy daromad solig‘i aholi daromadlarini tabaqalashtirishning mavjud darajasini, aholining turli qatlamlariga soliq yuki darajasini tartibga solishi mumkin.

Individual daromad solig‘ining maqsadi mamlakat byudjetini to‘ldirish va mablag‘larni aholi o‘rtasida teng taqsimlashdan iborat bo‘lib, bunga ushbu soliq funksiyalarini amalga oshirish orqali erishiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Aholini soliqqa tortish mavzusi darhaqiqat har bir zamon, davrda dolzarb masala bo‘lib xizmat qilgan, zero davlat ravnaqi va aholining turmush farovon hamda hayotining shinamligi ta’minalash masalalari bir biri bilan hamohang bolishi zarur. Bunday yuksak maqsadga erishish har bir davming yetuk olimlari tomonidan chuqur o‘rganilgan va turlicha qarashlar shakllantirilgan shu o‘rinda, quyidagi taniqli olimlarning soliq tizimi va soliqlar haqidagi tariflarini ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Misol uchun taniqli zabardast iqtisodchi olim A. Smit birinchi marta soliq tizimi haqida yozganda [4] asosiy to‘rtta soliqqa tortish qoidalari prinsiplarini ilgari surdi:

1. Davlat xo‘jalik yurituvchi subyektlari uchun imkon qadar nisbatan teng to‘lov tizimini yaratishi zarur, ya’ni subyektlarining olayotgan foyda hamda daromadga qarab, tenglik qilishi kerak. Ushbu qoida adolat prinsipi — tenglik va universallik sifatida shakllantirilishi mumkin;
2. Soliq o‘zboshimchalik bilan emas, balki aniq bo‘lishi kerak. To‘lov muddati, uning usuli va hajmi-har bir narsa aniq va shaffof bo‘lishi kerak, ya’ni soliqlarning aniqligi;
3. Soliqlar to‘lovchilar uchun eng qulay shartlarda va usullarda olinishi hamda to‘lanishi kerak;

4.Soliq xazinaga kelgan narsadan ko‘ra aholidan kamroq miqdorda olinishi kerak. Ushbu prinsipni soliq xizmatining arzonligi deb atash mumkin.

Yuqoridagilarga asosan shuni aytish mumkinki, soliqlar har qanday sharoitda aholini qiynashi yoki yuk bo‘lishi kerak emas, balki zaruriy bo‘g‘in, tolov shakli sifatida o‘zini taqdim etishi lozim. Shundagina aholining davlat olib borayotgan siyosatidan roziligi kayfiyati shakllanadi, shu o‘rinda “Buyuk ajdodimiz Ahmad al-Farg‘oniy Misrda Nil daryosi suvi hajmining o‘zgarishiga qarab, suvni barcha dehqonlar o‘rtasida bir xil taqsimlash, suv bilan ta’minalash darajasining hosilga ta’siri va shular asosida soliq miqdoriniadolatli o‘rnatish g‘oyasini ilgari surgan va hayotga joriy etgan. Bu insoniyat tarixida soliqqa tortish prinsiplarini ishlab chiqishga bo‘lgan ilk jiddiy urinishlardan biri”[5; 16 b] ekanligi bizga yanada faxr hamda g‘urur beradi.

“Har bir mamlakat, shu jumladan O‘zbekiston uchun optimal (maqbul) soliq yukini ishlab chiqilishi va unga amal qilinishi iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi va aholining yashash darajasini yaxshilanib borishi uchun asos yaratadi”[6].

Soliqlar davlat byudjeti daromadlarining markaziy instituti bo‘lganiga hali 200-yil to‘lgani ham yo‘q. Ingliz iqtisodchisi S.Parkinson so‘zi bilan aytganda: “Soliqlar ko‘hnadir — xuddi dunyodek, uning yuzaga kelishida qachondir bir mahalliy qo‘mondon o‘z hududida joylashgan daryo yoki tog‘dan savdogar hamda sayohatchi o‘tsa ulardan haq olishi sabab bo‘lgan”[7].

Natija va muhokamalar. Zamonaviy sharoitda soliq tizimining samaradorligini oshirish uchun eng yaxshi mexanizm bu soliq majburiyatining bajarilishi korxona yoki jismoniy shaxsning farovonligiga xizmat qilishini ta’minalashdan iboratdir.

Shu o‘rinda Xitoy Xalq Respublikasi misolida kambag‘allikni qisqartirishda individual daromadga soliqlar mexanizmidan samarali foydalanish masalalari ko‘rib chiqsak.

Xitoy Xalq Respublikasining soliq tizimi-bu mamlakatda o‘rnatilgan soliqlar va yig‘imlar tizimi, shuningdek ularni yig‘ish tamoyillari, shakllari va usullari to‘plamidir.

Ko‘plab davlatlar kabi soliqlar Xitoy Xalq Respublikasi xazinasi uchun eng muhim daromad manbai hisoblanadi. Shuningdek, u davlat tomonidan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini kuchaytirish uchun foydalanadigan muhim iqtisodiy dastak sifatida qo‘llaniladi. 1994-yilgi islohotdan keyin soliq tizimi ishining ijobiy natijalari dunyoda birinchi marta Xitoy Xalq Respublikasi misolida “Sotsializmning bozor iqtisodiyoti”ga moslashtirilgan samarali soliq tizimini shakllantirishga imkon beradi. Xitoy Xalq Respublikasining mavjud soliq tizimi ushbu mamlakatni tashqi dunyoga ochishga qaratilgan bo‘lib, bu milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga hissa qo‘shadi [10; 52 b].

XXI asrda Xitoy Xalq Respublikasining moliya-byudjet tizimida va soliq tizimida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi, bu hukumatga makroiqtisodiy darajada boshqaruv choralarini samarali amalga oshirish uchun moliyaviy yordam ko‘rsatdi. Biroq, hozirgi fiskal va byudjet tizimi vaqtinchalik bo‘lib, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish ehtiyojlariga javob bermaydi. Byudjet daromadlarini tartibga solish sohasida, xarajatlarni tartibga solish tizimida, shuningdek Markaziy va mahalliy byudjetlarda islohotlar hali yakunlanmagan. Fiskal tizim mamlakatning iqtisodiy tuzilishini va daromadlarni taqsimlashni tartibga solishda yanada zaif rol o‘ynaydi.

Xitoyda byudjet mablag‘lari to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy rivojlanish uchun emas, balki asosan ijtimoiy maqsadlar uchun sarflanadi. Hukumat iqtisodiyotni bozorga asoslangan holda rivojlantirish choralarini ko‘radi, ya’ni bozor kuchlari hisobidan va davlat byudjeti mablag‘lari milliy mudofaa, davlat boshqaruvini saqlash, o‘rta ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minotga sarflanadi. Xitoy oliv ta’lim, ilm-fan va infratuzilma xarajatlariga alohida ahamiyat bermoqchi. Sog‘liqni saqlash va oliv ta’lim kabi sohalarda davlat xarajatlarini nazorat qilish sohasida muhim islohotlar amalga oshirilishi kutilmoqda.

Yurtimizda farqli o‘laroq Xitoy Xalq Respublikasi soliq tizimida 25 ta asosiy soliqlardan iborat, O‘zbekistonda esa 9 tani tashkil etadi. Xitoy Xalq Respublikasining asosiy soliq turlari 1-jadvalda keltirib o‘tilgan.

1-jadval

Xitoy Xalq Respublikasining soliq tizimidagi soliq solish obyekti bo'yicha soliqlarning guruhanishi

Soliq guruhi	Soliqlarning asosiy turlari
Aylanmadan soliqlar	QQS Iste'mol solig'i (savdo solig'i) Biznes solig'i
Foyda (daromad) solig'i	Korporativ daromad solig'i Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va xorijiy korxonalarning daromad solig'i Shaxsiy daromad solig'i
Resurslar uchun soliqlar	Resurs solig'i Yer solig'i (shahar va tumanlar yerlaridan foydalanganlik uchun to'lov)
Maqsadli soliqlar va yig'imlar	Shaharlarni saqlash va qurish uchun soliq Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanganlik uchun soliq Asosiy vositalarga investitsiyalar bo'yicha soliq Yerni sotishdan olinadigan soliq
Mulk solig'i	Mulk solig'i Ko'chmas mulk solig'i
Operatsion (harakatlar) soliqlari	Avtotransport vositalari va suv kemalaridan foydalanish uchun soliq Shtamp (gerb) boji Mulkni ijaraga berish uchun soliq
Qishloq xo'jaligi soliqlari	Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun soliq Chorva mollarini parvarish qilish va ko'paytirish uchun soliq

Xitoy Xalq Respublikasining soliq qonunchiligi uzoq tarixga egaligi bilan birga u hozirgi shiddatli zamonga doimiy ravishda moslashib, takomillashib, tez rivojlanayotgan iqtisodiyotga moslashib kelmoqda.

“Soliq yig'ishni boshqarish to‘g‘risida” gi qonun 1992-yilda qabul qilingan (jami 3 ta tahrir qilingan, oxirgi 2013-yilda) va soliq solishning umumiy tamoyillari, soliq ma’muriyati qoidalari, soliq tekshiruvlari va soliq huquqbazarliklari uchun qonuniy javobgarlikni belgilaydigan asosiy qonun hujjatidir. Ushbu qonun 6 bob va 94 moddadan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksining analogidir. Soliqlarni joriy yetish va bekor qilish ushbu qonunga muvofiq amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtida korxonalar foyda soliqlarini, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish va transport solig‘ini joriy qiluvchi faqat uchta qonun amal qiladi. Qolgan soliqlar ma’muriy huquqiy hujjatlar, ya’ni vaqtinchalik qoidalar va normalar bilan belgilanadi va tartibga solinadi.

“Soliq yig‘ishni boshqarish to‘g‘risida” gi qonunni qabul qilishdan maqsad soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo‘lib, unga ko‘ra soliq imtiyozlari quyidagi shakllarda taqdim yetiladi:

- Har qanday soliq va to‘lovlarni to‘lashdan ozod qilish;
- Obyektning ma’lum bir qismini yoki soliq solish obyektlarining ayrim turlarini soliq bazasidan chiqarib tashlash;
- Soliq stavkalarini pasaytirish;
- Soliq bazasidan soliq imtiyozlari;
- Daromad va mulk qiymati bo‘yicha soliq solinmaydigan minimal miqdorlar;
- Soliq maoshidan chegirmalar;
- Soliqlar va to‘lovlarni to‘lash shartlarini o‘zgartirish;
- Soliq ta’tillari (ma’lum vaqt uchun soliq imtiyozlari);
- To‘langan soliqlarni offset yoki qaytarish;
- Soliq hisobotlarini taqdim yetish tartibini soddalashtirish [12]

Rivojlanishning har qanday bosqichida jamiyat oldida turgan ustuvorliklarni hisobga olgan holda, davlat soliq imtiyozlarining ma’lum tarkibini tanlaydi va shu bilan soliq imtiyozlari tizimini shakllantiradi.

Xitoy Xalq Respublikasi soliq tizimida soliq imtiyozlari, soliq solinadigan obyektlar solig‘idan ozod qilish, soliqni kamaytirish, stavkalarni kamaytirish, imtiyozli soliqqa tortiladigan maxsus iqtisodiy zonalar qo‘llaniladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan asosiy soliq shaxsiy daromad solig‘i hisoblanadi. Ushbu soliqni yig‘ish Xitoy Xalq Respublikasining 3-chaqiriq Xalq Kongressining 5-sessiyasida 1980-yil 10-sentyabrda qabul qilingan “Shaxsiy daromad solig‘i to‘g‘risida” gi qonunga muvofiq amalga oshiriladi, shu kungacha unga oltita o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Soliq to‘lovchilar Xitoy fuqarolari yoki doimiy yashash joyidan qat’i nazar, Xitoy hududida 1 yildan ortiq doimiy yashaydigan chet el fuqarolari bo‘lib hisoblanadi, mamlakatda yoki chet elda olingan daromad miqdoridan jismoniy shaxslar daromad solig‘ini to‘lashlari shart [13].

Xitoy Xalq Respublikasida yashash joyiga ega bo‘lgan shaxslar, odatda, Xitoy Xalq Respublikasida hududida doimiy ro‘yxatdan o‘tish, oila yoki iqtisodiy manfaatlar mavjudligi sababli Xitoy Xalq Respublikasida hududida yashovchi shaxslar hisoblanadi.

Xitoy Xalq Respublikasida yashash joyi bo‘lman va Xitoy Xalq Respublikasida 1 yildan ortiq, lekin 5 yildan kam yashagan shaxslar soliq organining qarori bilan chet el daromadlari bo‘yicha shaxsiy daromad solig‘ini to‘lashdan ozod qilinishi mumkin.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i miqdorini kamaytirish quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

- nogironlar, yolg‘iz qariyalar va xalq qahramoni boquvchisi bo‘lgan oilalari daromadlari (xalq qahramon halok bo‘lganda);
- tabiiy ofatlar kelib chiqqanda berilgan moddiy yordam ko‘rinishidagi daromadlar uchun.

Yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki bugungi kunda Xitoy Xalq Respublikasi ko‘plab sohalarda yetakchilik qilib kelmoqda jumladan soliq tizimi va uning ma’murchiligidagi ham va bu uning keyingi rivojlanish bosqichiga chiqishiga va iqtisodiy salohiyatini oshirishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Umumiyl xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kundagi ko‘plab rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy qudrati, uning soliq tizimi rivojlanishning asoslanadi va bu uni ajralmas qismidir. Zero, umuman iqtisodiyotning rivojlanishi davlat soliq siyosatini qanday olib borishiga bog‘liq. Shu o‘rinda bizning tadqiqotimiz natijalari bizga yurtimizda Xitoy Xalq Respublikasi tajribalaridan foydalangan holda quyidagilarni amalga oshirish uchun takliflarni shakllantirishga imkon berdi:

- ishlashni yoki band bo‘lishni rag‘batlantiruvchi soliq tizimini joriy etish, aholini rasmi ishlashini qo‘llab quvvatlovchi fiskal siyosatni amalga oshirish;
- aniq manzili ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo‘lgan shaxslarni soliqlardan ozod etish tizimini tashkil etish;
- umumiy oila daromadlariga qarab individual daromadni soliqqa tortishning tizimini joriy etish (xorijiy tajriba asosida);
- ko‘p bolali oilalarni qo‘llab quvvatlovchi soliq imtiyozlarini va preferensiyalarni joriy etish;

Umumiy xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki bizningcha yurtimizda kelajakda boqimandalikka kurashuvchi, shu bilan birgalikda ijtimoiyadolatni ta’minlovchi aniq shaffof individual daromadni soliqqa tortish mexanizmlari kerak bunga xorijiy tajribalarni tahlil etish va o‘rganish orqali erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.: O‘zbekiston, 2019. 55 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 17-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim hujjatlariga ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini soddalashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 547-sonli qarori.
3. <https://soliq.uz/press-services/news/show/endilikda-temir-daftarga-kiritilgan-ijtimoiy-ahvoli-va-turmush-sharoiti-ogir-oilalar-muammolarini-tezkor-va-soddalashtirilgan-tartibda-hal-etiladi>.
4. Еременко Е.А. (2013). Принципы налогообложения: историко-теоретический аспект. Финансы и кредит, (38 (566)), 78-83.
5. Soliq nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma. Sh.Toshmatov, A.G‘iyosov, S.Giyasov; -T.; “Iqtisod va moliya” 2021.-289-b.

6. Qudbiyev, N. T., Axmadaliyeva, Z. A., & No, D. M. O. G. L. (2022). SOLIQ YUKINING BIZNES UCHUN AHAMIYATI. *Scientific progress*, 3(3), 699-708.
7. Паркинсон С. Закон и доходы. — М.: ПКК “Интерконтакт“, 1992. — с.14-15.
8. Кундузова, К. И. (2022, April). Об эффективности налоговой системы. In E Conference Zone (pp. 92-95).
9. A.S. Jurayev, U.A. Berdiyeva. Soliq ma'murchiligi, – Т.: “Nihol print” OK, 2022. – 284 b.
10. Попова, Л. В., Дрожжина, И. А., & Маслов, Б. Г. Налоговые системы зарубежных стран/М.: Дело и Сервис, 2011.
11. Кизимов, А. С. (2009). Восток—дело тонкое, или О налогообложении в Китае. *Российский налоговый курьер*, (15), 3-7.
12. Калаков, Р. Н. (2010). Практика предоставления налоговых льгот в зарубежных странах. *Налоги и налогообложение*, (9), 45-54.
13. Пирумова, В. Э. (2011). Сравнительный анализ понятия “Налоговый резидент” в КНР и РФ, применительно к соглашению, заключенному между правительством РФ и правительством КНР об избежании двойного налогообложения и предотвращении уклонения от налогообложения в отношении налогов на доходы. *Мир современной науки*, (5), 42-45.
14. Tohiro维奇, Q. N. (2023). Specifics of Accounting for Lease Operations of the Organization. *Journal of Sustainability in Integrated Policy and Practice*, 1(2), 31-38.
15. Temirqulov, A., & Qudbiyev, N. (2022). Iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda soliq siyosati o‘rni. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 121-127.